



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARI VA UNING AHAMIYATI

Nig‘matullayev Ibrohim

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 1-kurs magistranti

INFO:

Qabul qilindi: 11.03.2022

Ko‘rib chiqildi: 12.03.2022

Chop etildi: 12.03.2022

Kalit so‘zlar: *ma’rifat, jadid, umuminsoniy qadriyatlar, asar, mактаб, haqiqat, ozodlik*

ANNOTATSIYA

Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati, ilmiy-ma’naviy me’rosi va uning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon qilingan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Alloma haqidagi olimlar fikri keltirilgan.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

KIRISH

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida [Turkiston](#), [Kavkaz](#), [Qrim](#), [Tatariston](#) hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan [O‘rta Osiyoda](#) tarqaldi.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, [turkiy tillarni](#) rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Turkistonda bu harakatning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiylar, Ubaydulla, Asadullaxo‘jayev, Munavvarqori, Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Toshpo‘atbek Norbutayev, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Nosirxonto‘ra Kamolxonto‘rayev, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev, Is‘honxon to‘ra Ibrat; Buxoroda - Sadriddin Ayniy,

Fayzullo Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Mussa Saidjonov, Abdulvohid Burxonov, Usmon Xo'jayev, Mirkomil Burxonov, Muhibdin Rafoat, Muhibdin Mansurov, Muxtor Saidjonov, Abduqodir Muhibdinov va boshqalar; Xivada – Boboixun Salimov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Avaz O'tar, Husayn matmurodov, Nazar Sholigorov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Devonov, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Pozachi, Otajon Sadayev, Bekjon Raximov, Muhammad Devonzoda va b. lar nomlarini alohida tilga olish zarur. Bular nafaqat halq ommasining ma'rifatli qilishga, balki mustaqillik g'oyalarini shakllantirishda ham katta hissa qo'shdilar.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "Jadidlarning rahbari" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo'lган.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati, ayniqsa, bu sohada tadqiqot olib borgan B.Qosimov, N.Karimov, D.Alimova, H.Muin, X.Davron, N.Rahmat, I.G'ofurov, M.Quronov, I.Haqqul, Sh.Rizayev, N.Namozova, P.Ravshanov, Q.Rajabov, H.Saidov, D.Quronov, M.Xo'jayev kabi olimlarimiz asarlarida o'z aksini topgan [1:43].

NATIJALAR

Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiylar 1875-yili Samarqandda tug'ilgan. Mahmudxo'ja Behbudiylar Yassaviy avlodidan hisoblanadi. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, muftiy darajasiga ko'tarilgan.

Behbudiylar haj safarida bo'lган chog'ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899—1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoysi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochgan [2].

Behbudiylar Qozon va Ufaga borib (1903-04), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolayi jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntahabi jug'rofiyayi umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblar chop ettilgan [3:374].

Behbudiylar 1911-yilda "Padarkush" dramasini yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiylar bu asar janrini "milliy fojia" deb atagan [2].

Drama 1913-yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo'yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasini shuning ta'sirida yozgani ma'lum. "Padarkush" ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek ababiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi.

Behbudiylar "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtadi. Shu yil 20-avgustdan u "Oyna" jurnali chiqara boshladidi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, she'r, maqola (forscha), e'lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston,

Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'yadi. Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913). Behbudiy 1914-yil 29-mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo'ladi, 8-iyunda Istanbulga keladi. Undan Adanaga o'tib, yana Istanbulga qaytadi va 20-iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So'ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said, Shom shaharlarida bo'ladi. Sayohat xotiralari "Oyna" jurnalida bosilib turadi. Bu "xotiralar" har jihatdan muhim bo'lib, an'anaviy tarix-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasi edi [4].

Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Behbudiy ilm-u ma'rifat xalq ommasi tomonidan o'zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi. U millat ozodligini ma'rifatparvarlik darajasi bilan bog'lab, ma'rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan. Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiyadolatni tiklab bo'lmaydi, degan xulosaga keladi. Behbudiy odamlardan dunyoviy fanlarning yutuqlarini o'zlashtirib olishni, o'z davri ijtimoiy talablari, asosan, shakllangan axloq me'yorlariga amal qilishni hamda insonparvarlik g'oyalarini shakllantirishni hamda islom dini ta'limoti bilan tanish bo'lishni talab qilgan. U millat ozodligini ma'rifatparvarlik darajasi bilan bog'lab, ma'rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan [1].

Vatanni anglash, unga muhabbatni his qilish uchun tarixga nazar tashlamoq kerak. Behbudiy ta'biri bilan aytganda, "Moziy – haqiqat tarozisidur". Mustaqillik, xotirjamlik, farovonlikning qadriga yetish uchun bu kunlarga qanday yetilganini, qancha-qancha vatanparvar insonlarning shahid ketganini, erk va ozodlik yo'lida cheksiz zahmat chekilganini bilmoq lozim. Mahmudxo'ja Behbudiyl tomonidan aytilgan "Haq olinur, berilmas!" xitobi, Abdurauf Fitratning "Keling, birlashaylik, oramizdagi shaxsiy tortishmalar, sinfiy ayriliqlardan ko'z yumaylik!" kabi xalqni birlashtirish yo'lida qilgan da'vatlari, qaysidir ma'noda, mustaqillikka erishishimizda muhim ahamiyat kasb etgan [5].

MUHOKAMA

O'zini Behbudiyning ma'naviy o'g'li deb bilgan samarqandlik jadid Vadud Mahmudning Mahmudxo'ja Behbudiyl haqida qoldirgan fikri diqqatga sazovordir:

"Mahmudxo'ja Behbudiyl kim edi... (Avval kim edi)?

Mahmudxo'ja Behbudiyl Turkiston degan o'lkaning boshlig'i edi.

Mahmudxo'ja Turkistonning yo'lboshchisi edi.

Mahmudxo'ja o'zining Turkiston bolasi ekanligini tushungan bir yigit edi. Shuning uchun u bizga, Turkistonga har narsa edi. Mahmudxo'ja Turkistonning yangilik davri tarixinda yorug' bir chirog' edi. Mahmudxo'janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o'run olishga munosib bir otdir" [6].

Sadriddin Ayniy esa uni "Turon dohiysi" va "oliyshon ustod" deb ulug'lagan edi. Shunday ulug' nomga Mahmudxo'ja Behbudiyning safdosh, zamondoshi Munavvar Qori Abdurashidxonov ham sazovor bo'lган edi. Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda, So'fizoda singari ulkan ijtimoiy-madaniy harakat soxiblarini ham xalq ota o'mida ko'rар va izzatlardi [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida jadidchilik harakatining taniqli namoyandasasi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145-

yilligini munosib nishonlash haqida ta'kidlab o'tgan edi. O'tgan asrning boshlarida Turkiston o'lkasining har tomonlama mustaqilligi, rivojlanishi, o'lka aholisining ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy ongini yuksaltirish orqali o'sha vaqtarda jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilishini orzu qilgan va o'z hayotini mana shu ishlarga bag'ishlab, xalq va Vatan taraqqiyoti yo'lida shahid bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy nomi, hayoti va ijodi bugun davlatimiz va xalqimizning yuksak e'tiborda hisoblanadi [1].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda asrlar davomida yuksalib, qadrlanib shakllangan milliy va diniy qadriyatlarimizni jamiyat ongiga singdirish orqali ta'lim tizimi, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mahmudxo'ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodini o'rganish, ilmiy merosini tadqiq etish vositasida bugungi yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning shartlaridan biri va ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Xujaev M. (2020) "MAHMUDKHUJA BEHBUDIY AS A LEADER OF JADID REFORMS," The Light of Islam: Vol. 2020: Iss. 3, Article <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss3/4>
2. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/mahmudxoja-behbudiy/>
3. Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. Т.: 2001
4. [Mahmudxo'ja Behbudiy. Ikki maqola: Jaholat dardlaridan & Teyotur nima? | Xurshid Davron kutubxonasi \(kh-davron.uz\)](#)
5. www.mudofaa.uz
6. [Mahmudxo'ja Behbudiy kim bo'lgan? Biz uni munosib qadrlayapmizmi? - zarnews.uz](http://zarnews.uz/Mahmudxo'ja Behbudiy kim bo'lgan? Biz uni munosib qadrlayapmizmi? - zarnews.uz)
7. [Ibrohim G'afurov. Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ikki badia | Xurshid Davron kutubxonasi \(kh-davron.uz\)](#)
8. Нифматуллаев, Иброҳим. "ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАФРИЕНГЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ." *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали* 2.1 (2022): 166-171.
9. Alimova, M., & Nigmatullayev, I. (2019). CLARIFICATION OF TOLERANCE IN ISLAMIC SOURCES. *The Light of Islam*, 2019(1), 13.